



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Journal of Multidisciplinary Research. <https://webofjournals.com/index.php/12/article/view/3485>

8. Abduvalitov N.B. The Problem Of Comparative Study Of Samples Of World Literature In General Secondary Schools // The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: American, 2021. – P: 44-47. Impact Factor: 2020: 5. 525.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/KPKX3446

TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI

Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti*

shaxnozaxon4407@icloud.com

ORCID ID: 0009-0004-3129-6091

Annotatsiya. Ushbu maqola termin, atama va so'zning ko'pincha sinonim sifatida ishlatilishi, ammo ularning mazmun jihatidan farqlanishi muammolariga bag'ishlangan. Maqolaning maqsadi ushbu muammoni hal etishga qaratilgan bo'lib, ushbu tushunchalarning tilshunoslikdagi o'rni va ularga berilgan ilmiy yondashuvlarni o'rganish, amaliy tahlillar orqali ularning farqli xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, terminlarning ilmiy-texnik sohalarda aniq va barqaror ma'no ifodalovchi birlik sifatida qo'llanishi, atama va istilohlarning mazmun jihatidan farqlanishi, so'zning umumtil birliklari bilan bog'liqligini yoritishni taklif etishdir.

Kalit so'zlar: *Termin, terminologiya, terminologik tizim, atama, leksema, istiloh, so'z, umumtil.*

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме частого использования терминов и слов как синонимов, но их содержательных различий. Целью статьи является решение этой проблемы, изучение роли этих понятий в языкознании и научных подходов, придаваемых им, определение их точности и выявление их отличительных черт путем практического анализа. Также предлагается выделить использование терминов в научных и технических областях как единиц, выражающих четкое и устойчивое значение, содержательные различия терминов и выражений, связь слов с универсальными языковыми единицами.

Ключевые слова: *Термин, терминология, терминологическая система, модное слово, лексема, слово, универсальный язык.*

Abstract . This article is devoted to the problem of the frequent use of terms and words as synonyms, but their differences in content. The purpose of the article is to solve this problem, to study the role of these concepts in linguistics and the scientific approaches given to them, to determine their accuracy and to identify their distinctive features through practical analysis. It is also proposed to highlight the use of terms in scientific and technical fields as units expressing a clear and stable meaning, the differences in content of terms and expressions, and the connection of words with universal language units.

Key words: *Term, terminology, terminological system, buzzword, lexeme, word, universal language.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda o'zbek tili rivojiga bo'lgan e'tibor avvaldagidanda kuchayib, o'zbek tilida terminlar va atamalar bilan ishlashga



bo'lgan ehtiyoj yanada ortdi. Bir qarashda termin va atama leksemalarini bir birdan farqi yo'qdek tuyiladi, ya'ni ko'plab manbalarda ular bir xil tushunchalar deb hisoblanadi. Ammo tilshunoslikda ularning farqli jihatlarini yaqqol ko'zga tashlanadi. Quyida "termin", "atama", "so'z" ning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilining izohli lug'atida termin so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan. "Termin – (lot. terminus – "chek" – "chegara") Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi" [O'TIL – 6, 2023: 222–223]. Termin so'zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunos(logik)lar uchun termin-aniiq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin.

Fan va texnikada termin sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli o'laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o'z ma'nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi. Termin ta'riifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko'pdan-ko'p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta'riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tarzida tavsiflanadi [Dadaboyev, 2019: 4].

O.Vinokurning fikricha, termin har :m aniiq tushunchani ifodalaydi. Terminlar sistemasi tili ongli ravishda shakllantiriladi. Zero termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda paydo bo'lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi [Vinokur, 1961: 3-10]. Bu jarayon tilning rivojlanishi va ijtimoiy ehtiyojlarga moslashuvi bilan bog'liq. Terminning umumiy qo'llanishdagi so'zdan farqi uning definitiv funksiyasining mavjudligidir. Bunda termin ortida predmet yoki hodisaning emas, balki uning mantiqiy ta'riifi turadi. Terminlar aniiq va belgilangan ma'noga ega bo'lib, ilmiy va kasbiy sohalarda o'zaro tushunishni ta'minlaydi.

A.S.Gerdning mulohazasiga ko'ra, termin – ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniiq va to'raligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir [Gerd 1991;1–4]. O.S.Axmanovanning ta'kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniiq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. Terminni termin bo'lmagan leksemadan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta'riflashning mumkin emasligidadir. V.G.Gak terminning ta'rifini berish barobarida uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so'z boyligidagi o'rnini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga e'tiroz bildiradi, hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo'llanishining bir ko'rinishi,



degan g'oyani ilgari suradi [Gak 1972:68–71]. U terminlarni faqat ilmiy va texnik sohalarda ishlatiladigan so'zlar sifatida emas, balki til tizimida o'ziga xos funksiyaga ega bo'lgan leksik birliklar sifatida ko'radi. Gakning fikricha, terminlar tilning maxsus leksik birliklari bo'lib, ular o'zining aniq va ravshan ma'nosi bilan ajralib turadi. Ular til tizimida o'ziga xos o'rin tutadi va ularning mohiyati ularning funksiyasida yotadi.

V.P.Danilenkoning e'tirof etishicha, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi oqibatida voqelanadi [Danilenko, 1971:9]. Danilenko "Ruscha terminologiya: lingvistik tavsif tajribasi" nomli asarida terminlarning ilmiy va texnik sohalarda qanday shakllanishini va rivojlanishini tahlil qiladi. U terminlarni faqat so'zlar sifatida emas, balki til tizimidagi o'ziga xos funksiyaga ega bo'lgan birliklar sifatida ko'radi. Bu qarashlar tilshunoslikda terminologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

D.S.Lottening ishlarida terminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq tizimning a'zosi shaklida qarash, munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Uning fikriga ko'ra, terminlar tizimli xarakterga egaligi aytiladi. Terminlarning terminlar sistemasidagi o'rni, mavqei muayyan tushunchaning tushunchalar sistemasidagi o'rni, mavqei bilan aniqlanadi [Lotte, 1994]. U tomonidan ishlab chiqilgan terminlarga qo'yiladigan me'yoriy talablar tizimlilik, bir ma'nolilik, qisqalik, aniqlik, lisoniy asoslardan iborat.

Terminga muayyan talab qo'yiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy so'zlardan ajratib turadi [Dadaboyev, 2019: 6]. Bu fikr D.S. Lotte ishlab chiqqan talablarni ilgari suradi. H. Dadaboyevning fikricha, termin alohida talablar asosida bo'lishi kerak, shunda u umumtil, so'z, lahja kabi tushunchalardan farq qiladi.

Terminologiya – ma'lum bir tilga tegishli atamalar bilan belgilanadigan haqiqatni ifodalovchi tushunchalar to'plami hamda ma'lum bir sohadagi ixtisoslashgan so'zlar va tegishli ma'nolar guruhi, shuningdek, bunday atamalarni o'rganish va ulardan foydalanishdir [Sonnaveld, 1994]. Sonnaveldning terminologiyaga bergan ta'rif terminologiyaning tushunchalar tizimi, ixtisoslashgan leksika, ilmiy va amaliy ahamiyat kabi asosiy jihatlarini ham belgilab beradi.

Termin ma'lum kontekstlarda ma'lum ma'nolarga ega bo'lgan so'z, qo'shma so'z yoki so'zli iboradir. Ular boshqa kontekstlarda va kundalik tilda bir xil so'zlarga ega bo'lgan ma'nolardan farq qilishi mumkin [Rayt., Budin, 1997]. Bu ta'rif bilan muallif termin yagona leksemadan iborat emasligini, uning kengaygan holda ham kelishini ta'kidlagan. Masalan, *anatomiya*, *pedagogika*, *leksikologiya* (so'z holatida kelishi), *kredit kartasi*, *kompyuter tarmog'i*, *biologik xilma-xillik* (qo'shma so'z holatida uchrashi), *yadro energiyasi*, *moliyaviy tahlil*, *grammatika qoidalari*, *fotosintez jarayoni* (so'zli ibora shaklida kelishi).

Terminologiya leksikografiyadan farq qiladi, chunki u tushunchalarni, konseptual tizimlarni va ularning belgilarini (atamalarini) o'rganishni o'z ichiga oladi, leksikografiya esa so'zlar va ularning ma'nolarini o'rganadi, shu bilan



birga, inson faoliyatining bir yoki bir qancha fan sohalariga xos bo'lgan "tushunchalarini belgilash"ni muntazam ravishda o'rganadigan fandir. Terminologiya tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, ba'zi manbalarda terminosistema deb ham ataladi. Terminosistema – inson bilimlari yoki faoliyatining har qanday maxsus sohasi – belgilari tizimi, uning tushunchalari tizimiga nisbatan izomorfik, kommunikativ ehtiyojlariga xizmat qiladi. Bunga hujjatlashtirish va foydalanishni rag'batlantirish maqsadida kontekstdagi atamalarni o'rganish va tahlil qilish orqali erishiladi hamda bir yoki bir nechta tillar bilan cheklanishi mumkin. (Misol uchun, "ko'p tilli terminologiya" va "ikki tilli terminologiya") yoki turli sohalarda atamalardan foydalanishga qaratilgan fanlararo harakterga ega bo'lishi mumkin.

Tilshunoslikda terminologiya muhim ahamiyat kasb etishi sababli uning o'ziga xos asosiy xususiyatlari mavjud: ulardan biri maxsus atamalar to'plamidir.

"Atama" leksemasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, atama termindan kengroq tushunchadir. Hozirgi kunda "termin" so'zi bilan bir qatorda "atama", "istiloh" so'zlari ham ayni ma'noda qo'llanmoqda. Lekin ular *termin* so'zining hozirgi ma'nosini to'liq ifoda eta olmaydi. "Atama" so'zi keng ma'noda bo'lib, geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan qo'llanadi. "Istiloh" so'zini esa termin ma'nosida tarixiy mavzulardagi matnlar (mas., adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va boshqalar)da bemalol qo'llash mumkin.

Terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda *termin-atama-istiloh* so'zlaridan sinonimik uya tarzida foydalaniladi. Sir emaski, o'zbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyin ba'zi subyektiv nuqtayi nazarlar natijasida termin o'rnida atama derivatini qo'llash faollashdi. Bir qaraganda, baynalmilal o'zlashmaga har jihatdan mos tushgan o'zso'zning qo'llanishi ma'quldek tuyuladi. Lekin termin o'zlashmasining ta'rifi bilan atama yasamasi qamrovini qiyoslash har ikki leksemani sinonim tarzda ishlatishning maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi. O'z vaqtida A.Hojiyev *termin* so'zini *atama* yasamasi bilan almashtirishning noto'g'ri ekani, uning sabab va oqibatlari xususida jiddiy mulohaza yuritgan edi [Hojiyev, 1996: 22–25]. Shularni hisobga olgan holda, termin o'zlashmasini ilm-fan, texnika sohaları yoki tarmoqlarida qo'llanuvchi so'z va so'z birikmalari, atama so'zini shartli ravishda qo'yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha istiloh o'zlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish o'zini oqlaydi [Madvaliyev, 2017: 28–30].

Atama ma'lum fan yoki hunar sohasiga oid tushunchalarni qayd qilish, saqlash va bu sohada to'plangan bilim, tajriba, texnik mahorat va malakani boshqalarga berish vositasidir. M. Odilova, D.Jabborova, S.Jo'rayevlarning "Pedagogik atamalar" lug'atida atamaga shunday ta'rif beriladi: Atama – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga :r tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi [Odilova, Jabborova, Jo'rayev, 2023]. Ushbu olimlar ham *atamaga termin* klassifikatsiyasi kabi ta'rif berishgan. Ya'ni *atama* maxsus sohaga oid tushunchalarni so'z yoki so'z birikmasi ko'rinishida ifodalaydi.



Ukrain filolog olimi Simonenko L.O. atama haqida shunday fikrlarni keltiradi: "Atama oddiy so'zdan farqli o'laroq, uslubiy jihatdan ko'proq tartibga solinadi, u "betaraf", "hissiyotsiz", "ekspressiv" kabi tushunchalarda neytral bo'ladi, "hissiy va ekspressiv lug'at" kabi tushunchalardan farq qiladi" [Simonenko, 1991: 152]. Haqiqatan ham, aynan shunday, agar *atama* tushunchasini so'zdan farqlash zarurati tug'lsa, *atama* hissiyotlarsiz, ya'ni his-tuyg'uni ifodalamaydi, desak to'g'ri bo'ladi. Hozirgacha so'z bilan *terminning* umumiy va xususiy tomonlari yetarli darajada ochib berilmagan. Kundalik turmushda keng iste'molda bo'lgan so'zlar ayni paytda turli sohalarga oid terminlar hisoblanadi. Masalan, *quloq, burun, tomoq* — anatomiya va tibbiyot; *gilam, sholcha, palos* – gilamdo'zlik; *kitob, ruchka, daftar* – pedagogik soha terminlari bo'lish bilan birga umumxalq tilida faol qo'llanadi.

So'zga "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" da quyidagicha ta'rif berilgan: So'z bu – tilning narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim struktur ma'noviy birligi; o'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, borliqdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko'rinishi. So'z gap uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi, lekin undan farqli ravishda, xabar yoki tugal fikr bildirmaydi. O'zida leksik va grammatik ma'noni birlashtirgan hodda so'z muayyan so'z turkumiga mansub bo'ladi, o'z tarkibida muayyan til tizimida oldindan tayin bo'lgan barcha grammatik ma'nolarni ifodalaydi [O'ZME, 2000-2006: 822-823]. Bunda so'zga umumiy tarzda ta'rif berilgan bo'lib, uning xabar yoki gap kabi tugal fikr bildirsa olmasligi, ma'lum so'z turkumiga mansub bo'lishi, grammatik ma'no ifodalashi, nutqning eng kichik birligi kabi ma'nolar ifodalashi bildirilgan.

Tilshunoslikda "so'z" atamasi leksemaga nisbatan ham qo'llanadi va leksik so'z deb yuritiladi. Masalan, "so'z yasalishi", "yasama so'z" birikmalarida "so'z" xuddi shu ma'noda qo'llanadi. Leksemaning nutqda muayyan shaklda voqelangan holati tilshunoslikda "so'z shakl", "leksema shakl" yoki "morfologik so'z" deb ham yuritiladi.

Bundan tashqari lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan, lekin o'z tovush qobig'iga, o'ziga xos ma'no, vazifasiga ega bo'lgan, shu bilan birga so'z yasash yoki so'z shaklini hosil qilish uchun foydalaniladigan morfemalardan farqlanuvchi til birliklari ham "so'z" deb yuritiladi. Bular yordamchi so'zlar (*bilan, lekin, kabi, xuddi*), undovlar (*obbo, ehhe, voy*), taqlid so'zlar (*miyov, dukur-dukur, yalt-yult*) va modal so'zlar (*shubhasiz, demak, ehtimol*).

Xulosa qilib aytganda, so'nggi paytlarda tilshunoslik fani rivojlanib, o'z tadqiqot maydonini boyitar ekan, har bir soha terminlarini o'rganish uning eng muhim va dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Hozirgi davrda terminlarni o'rganish orqali tilshunoslikning alohida tarmog'i – terminologiya shakllandi va kundan-kunga rivojlanib borayotgan sohalardan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro munosabatlarni ifodalovchi siyosiy va ijtimoiy terminlarni o'z ichiga olgan har qanday til leksikasining salmoqli qismini tashkil etishda terminlar



asosiy rol o'ynamoqda. Istalgan til va madaniyatni o'zaro munosabatini tasvirlashda, ayniqsa, tarjima jarayonida mavzuga mos terminlarga duch kelinadi. Til birliklari orasida terminlar so'z va so'z birikmasi obyektlarini nomlash va farqlash kabi vazifalari, shuningdek, individuallashtirish va identifikatsiyalash kabi tamoyillari bilan alohida ajralib turadi. Xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda terminlar muammosi oldindan mavjud. *Termin, atama* va *so'z* o'rtasidagi asosiy farq ularning aniq ma'no ifodalash darajasida va qo'llanilish sohasida yotadi. Terminlar ilmiy va texnik sohalarga xos aniq ma'nolarni anglatadi, atamalar esa kengroq tushunchalarni ifodalaydi, so'zlar tildagi barcha ma'no birliklarini o'z ichiga oladi hamda har qanday kontekstda ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E., Hojiyev A., Mirzayev T. O'zbek tilining izohli lug'ati / 6 jildli. 5-jild – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 b.
2. Dadaboyev H, O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 136 b.
3. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.5. – М.: Сборник статей по языкознанию, 1961. – С. 3–10.
4. Герд А.С. Значение термина и научное знание / Научно техническая информация. Серия 2. – М.: 1991. №10. – С. 1–4.
5. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ, 1972. – С. 68–71.
6. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам//Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики. – М.: МГУ, 1971.
7. Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии. Т.1. – М.: Московский лицей, 1994.
8. Сонневельд Х.Л. Введение в терминологию, в “Терминологии”. – Кієв, 1994.
9. Райт С.Э., Будин Г. Справочник по управлению терминологией, том 1, Основные аспекты управления терминологией, – Амстердам-Филадельфия: Джон Бенджаминс, 1997.
10. Ҳожиєв А. Термин танлаш мезони. – Toshkent, 1996. – 22–25 b.
11. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Toshkent: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. 28–30 b.
12. Odilova M., Jabborova D., Jo'rayeva S. Pedagogik atamalar. – Namangan, 2023. – 10 b.
13. Симоненко Л. Формування укр. біол. термінології, – Киев: Наук. Думка, 1991.
14. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi / 12 jildli. 8-jild. – Toshkent, 2004. – 712 b.



DÜŞÜNCELER	
Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
Заки Арсланович Алибаев. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
Акжолова Таңнұра Нурбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
Nizomjonova Durdona Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойшыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI	198
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
Е.М. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI	236
Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

